

Kuzgi natyurmort



Natyurmort – rangtasvirning kundalik hayotimizdagi narsalar tasvirlanadigan alohida janri. Bugungi darsda kuzgi natyurmort bilan tanishasiz, gullar, non, mevalar kartinada qanchalik chiroyli aks etishini ko'rasiz.

E'tiboringizga **Dilorom Mamedovanning** ishlarini havola etamiz.



Guldasta



Qaynoq nonlar

Dilorom Mamedova – O'zbekistondagi eng mashhur ayol rassomlardan biri. Uning ijodidagi sevimli mavzu ona diyor go'zalligi, madaniyati va milliy an'analaridir.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Gorizontal chiziq va **ikkita oval** chizing: qovoq uchun bittasi gorizontal, savat uchun ikkinchisi vertikal holatda bo'lsin.
2. Yoysimon chiziqlar bilan **qovoqni bo'laklarga bo'ling**. Bosqichma-bosqich savatni chizing.
3. Savatni **kuzgi barglar guldastasi** bilan to'ldiring.
4. Avval **fonni**, keyin esa guldasta solingan savatni, so'ngra qovoqni **bo'yang**. Kuzga mos yoqimli ranglardan foydalaning.



Kuzgi natyurmorni bosqichma-bosqich chizing. Unda kuzga xos ilqlik va go'zallikni aks ettirishga harakat qiling.

